
ISSN: 3060-4613

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№11(2)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslaşgan ilmiy jurnal

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Elektron naşr. 244 sahifa,
9-noyabr, 2026-yil.

BOŞ MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOŞ MUHARRIR ÖRINBOSARI:
Aşurov Ramzidin Ramazonoviç – Psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGAŞI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Şoumarov Ğ.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirğizboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şaripov Ş.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şermuhammadov B.Ş. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qöldoşev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozoğiston)
Rejep Özyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Ça – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Ş. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi Özbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM boş muharriri, Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan jurnalist, filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Ğafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Şomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Nematov Ş.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yiça falsafa doktori (PhD)
Yuldaşeva F.I. – pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldaşeva D.B. – filologiya fanlari böyiça falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qaşqadaryo viloyati Maktabgaça va maktab ta'limi boşqarmasi boşliğining birinçi örinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bölimining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor öğli – Pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va işbilarmon" MÇJ
Hamkorlarimiz: Özbekiston Respublikasi Ta'lim va ilm-fan vazirligi,
Özbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDİTORİAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali Özbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni çop etiş uçun milliy ilmiy naşrlar röyxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari böyiça: OAK Kengaşi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

• Ekspert kengaşi (29.10.2024-y., №10)

• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari böyiça: Toşkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

• Ekspert kengaşi (25.05.2025-y., №10)

• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Fortepiano ijroçiligida nota öqiş va musiqiy savodxonlikni rivojlantiriş 10
Burxonova Gulrux Umrzakovna

Autizm spektri buzilişi bölgan bolalarni korreksion-pedagogik qöllab-quvvatlaş: individual ehtiyojlar va amaliy yeçimlar 15
Nazokat Abidova Kutbiddinovna

Ixtisoslik fanlarini öqitişda işlab çiqariş va ta'lim integratsiyasini taşkil etişning nazariy asoslari 20
Kurbanov Aziz Teshavoyeviç

Jazoni ötab qaytgan onalar reintegratsiyasida onalik identifikatsiyasi va ota-ona–farzand munosabatlarini tiklaşning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 25
Samatova Dilrabo Yusufovna

Nutqiy va nutqiy bölmagan tovuşlarni idrok etişni rivojlantiruvçi öyin texnologiyalari 30
I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Işxodjayevna

Umumiy örta va professional ta'lim tizimida ösmirlar deviant xulq-atvorining profilaktikasida psixolog va pedagoglar hamkorligi 35
Sulaymanova Dildora Kodirovna, Hamidova Volida Utkirjon qizi, Nigora Axmedova

Bölajak öqituvçilarning kasbiy mahoratini rivojlantirişda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalaniş 40
Xolbayeva Dildora Azizovna

Katta maktabgaça yoşdagi bolalar nutqini rivojlantirişda xorijiy tajriba asosida mnemonik jadvallardan foydalaniş samaradorligi 46
Abdulazizova Kamolaxon Abdurazzoq qizi

Innovatsion yondaşuv asosida bölajak öqituvçilarning huquqiy madaniyatini rivojlantiriş 51
Muxamadiyev Dilşod Aslitdinoviç

Dialektal frazemalarning uslubiy böyoqdorligi va ekspressiv-baholaş xususiyatlarining qiyosiy-statistik tahlili 55
Norqobilova Zarifa Axatullayevna

Гендерная специфика опосредующей роли интернет-зависимости во взаимосвязи сравнения внешности и самооценки у студентов 59
Багдасарова Д. Л.

Globallaşuv şaroitida ijtimoiy himoya terminologiyasining transformatsiyasi va uni milliy termin şaklida takomillaştiriş muammolari 63
Elmirzayeva Maftuna Dösmurod qizi

Taom va ovqatlaniş leksikasining lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va özbek tillarida) 68
Qöyliyeva Guliza Alişer qizi

Okkazional frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili ingliz va özbek tillarida 73
Fayzullayeva Malika Jamshid qizi

Pedagogik muloqot uslublarining maktabgaça yoşdagi bolalar biliş jarayonlariga ta'siri 78
Qodirova Malikaxon Kaxramonovna

Pedagogik oliy ta'limda xotin-qizlarning intellektual va kasbiy salohiyatini rivojlantirişda mentorlik texnologiyalarining imkoniyatlari 83
Yakubova Dinora Isakovna

Bölajak boşlanğiç sinf öqituvçilarining ona tili ta'limini loyihalaş könikmasi: mazmuni va tarkibiy qismlari 89
Malikova Dilrabo Ravshan qizi

Oilaviy zöravonlikning ijtimoiy sabablari va psixologik oqibatlari 95
Dumarova Gulfira Kozimbekovna

Çiziqli tenglamalar sistemasini öqitişda fanlararo integratsiyaning didaktik imkoniyatlari 99
Bozorova O'g'iloy Hikmat qizi, Husanova Diyora Otabek qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Psixik kamol topişi vaqtinça töxtab qolgan bolalarga xos bölgan xususiyatlar va ular bilan korreksion işlar 104
Berdiyeva Lobar Norkabulovna

8-sinf biologiya darslarida "Ixtisoslaşgan hujayralar va özak hujayralar" mavzusini öqitişning ilmiy-metodik asoslari
Rahmanova Nargiza Turgunovna

Ingliz va özbek tillarida nominativ-ekspressiv frazeologizmlarning lingvo-kulturologik tadqiqi va ularni STEM ta'limi bilan integratsiyalaş imkoniyatlari 110
Bahromov Javoxir Rustam öğli

Musiqiy ta'lim yönalişi talabalarini öqitişda an'anaviy ijroçilik san'ati namunalarining örni 114
Dilşodjon Toşaliyev

Geografiya fanining zamonaviy öquv-metodik majmuasini takomillaştirişda xorijiy tajribalarning örni 117
Ismatov J. A.

Bölajak pedagoglarni öquvçilarda soğlom turmuş tarzini şakllantirişga örgatiş metodikasini takomillaştiriş... 123
Isokova Sevara Abdumannonovna

Kiçik maktab yoşidagi öquvçilarda tabiatni anglaş könikmalarini rivojlantirişning psixologik-pedagogik şartlari 129
Karimova Sevara Şaxriddin qizi

Ösmirlarning özini anglash va özini boshqarish könikmalarini rivojlantirishda öqituvchining kasbiy refleksiyasi 134
Qambarali Baxramoviç Djörayev

Bölajak öqituvçilarda emotsional intellekt va kasbiy refleksiyani şakllantirişda narrativ texnologiyalarning örni 139
Sadiyeva Şaxnoza Xusanovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy kollaboratsiyani yölga qöyishdagi xalqaro tajribalar (ota-ona va MTT hamkorligi misolida) 145
Tojimirzayeva Buzulayxo Maxammad qizi

Didaktik drama vositasida bölajak öqituvçilarda kasbiy refleksiya va pedagogik taktni şakllantiriş 149
Xolbayeva Dildora Azizovna

Ta'limda robototexnika va sun'iy intellektni joriy etişning pedagogik imkoniyatlari 155
Mahmudov Ilxom Baxrom öğli

Nostandart masalalarni trigonometrik usullar yordamida yeçiş 162
Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanoviç, Saparova Aynura Arslanbay qizi

Oila va ta'lim muassasasi hamkorligida talaba qizlarni mustaqil hayotga va oilaviy munosabatlarga tayyorlaş mexanizmlari 168
Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna

Maktabgaça yoşdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirişda raqamli texnologiyalardan foydalaniş 172
Hasanova Sitora Otabekovna

Teacher-Guided Artificial Intelligence for Diagnosing and Correcting Students' Mathematical Errors in Grades 5–9 177
Gasimov Emil Emin

Integratıv yondaşuv asosıda texnologıya fanını öqıtış metodık ta'mınotını takomıllaştırışnıng dıdaktık asosları 183
Andaqulova Farzona Xayrulla qizi

Team Point System and Student Engagement 189
Dilbar Khasanova

Tarbiyaçilar faoliyatidagi kasbiy çeklovlarni yengiş va ularning mahoratini oşiriş metodikasi 194
Umarova Sarvinoz Akbarovna

"Ilk qadam" dasturining kognitiv rivojlaniş sohasi böyiça natijalarini baholaş vositalarini işlab çiqiş va sinovdan ötkaziş 197
S. K. Mamadaliyeva

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oilaviy munosabatlarning ösmirlarda özini baholaş va şaxsiy mustaqillik şakllanişiga ta'siri 200
L. E. Izaitullayeva, Mamedov Jahongir Azerovich

Профессионально ориентированное обучение русскому языку студентов-экономистов в вузах Узбекистана 207
Киличева Феруза Бешимовна

Sport turizmi faoliyatida motivatsiya, ijtimoiy faollik va kasbiy refleksiyani rivojlantiriş yöllari 212
Dustov Jonibek Amriddinoviç

Sun'iy intellekt orqali talabalarda tanqidiy fikrlaşni rivojlantirişning pedagogik imkoniyatlari 217
Sodiqova Dilfuza Ropijonovna

Bölajak pedagoglarda zöravonliksiz muloqot könikmalarini rivojlantirişning pedagogik mexanizmlari 221
Sultanova Nilufar Raxmatullayevna

Методологические основы госпитальной педагогики как направления современной педагогической науки 227
Хакимова Гульшода Абдусаламовна, Чолокова Камилла Алексеевна

Maktabgaça ta'lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanişning pedagogik imkoniyatlari 233
Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Aliyeva Marjona Yusuf qizi

Maktabgaça yoşdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini taşkil etişda kompleks faoliyatlarda tarbiyalaş tizimiga qöyilgan zamonaviy talablar 239
Nazarkulova Laylo Saidjon qizi

BÖLAJAK BOŞLANĞIÇ SINF ÖQITUVÇILARINING ONA TILI TA'LIMINI LOYIHALAŞ KÖNIKMASI: MAZMUNI VA TARKIBIY QISMLARI

Malikova Dilrabo Ravshan qizi
Nizomiy nomidagi Özbekiston milliy pedagogika universiteti
tayanç doktoranti

Annotatsiya: Maqolada bölajak boşlanğiç sinf öqituvçilarining ona tili ta'limini loyihalaş könikmasi mazmuni va tarkibiy qismlari masalasi körib çiqilgan. "4+2" tartibidagi pedagogik amaliyot va yangi darsliklarning joriy etilişi talabadan ona tili darsini oliy ta'lim davridayoq mustaqil loyihalaşni talab qilayotgani muammoning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotda özbek, MDH va xorijiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qiliş, tuşunçalar tahlili, amaldagi 2- va 3-sinf "Ona tili" darsliklari materialini lingvodidaktik tahlil qiliş hamda modellaştiriş usullari qöllandi. Mavjud yondaşuvlarda maqsad qöyiş, mazmun va metod tanlaş hamda baholaş yaxşi işlab çiqilgani, biroq til materialini tahlil qiliş loyihalaşning mustaqil tarkibiy qismi sifatida ajratilmagani aniqlandi. Ilmiy yangilik sifatida könikmaga işçi ta'rif berildi va uning lingvodidaktik-tahliliy, maqsad-natijaviy, mazmuniy-konstruktiv, baholaş-diagnostik hamda refleksiv-tuzatuvçi tarkibiy qismlari kuzatiladigan körsatkiçlari bilan asoslandi. Muallifning pozitsiyasiga köra, lingvodidaktik tahlil könikmaning özagi bölib, qolgan qismlarning töğriligi şu tahlil sifatiga boğliq. Natijalar "Ona tili öqitiş metodikasi" fanida loyihalaş topşiriqlarini tuziş va könikmani baholaş mezonlarini işlab çiqiş uçun asos böladi.

Kalit sözlar: ona tili ta'limi, loyihalaş könikmasi, dars loyihasi, lingvodidaktik tahlil, bölajak boşlanğiç sinf öqituvçisi, pedagogik mazmun bilimi, refleksiya, "4+2" amaliyoti.

Abstract: The article examines the content and components of pre-service primary teachers' skill of designing native language instruction. The relevance of the problem stems from the "4+2" teaching practicum and the introduction of new textbooks, which require students to design native language lessons independently while still at university. The study used comparative analysis of Uzbek, Russian and international literature, conceptual analysis, linguo-didactic analysis of material from the current Grade 2 and Grade 3 "Native Language" textbooks, and modelling. The analysis showed that existing approaches elaborate goal setting, the selection of content and methods, and assessment, but do not treat the analysis of language material as an independent component of lesson design. As a scientific novelty, a working definition of the skill is proposed, and its components - linguo-didactic analytical, goal-and-outcome, content-constructive, assessment-diagnostic and reflective-corrective - are substantiated together with observable indicators. The author argues that linguo-didactic analysis is the core of the skill, since the soundness of the other components depends on its quality. The results can serve as a basis for designing lesson-planning tasks and assessment criteria in the native language teaching methods course.

Key words: native language instruction, design skill, lesson design, linguo-didactic analysis, pre-service primary teacher, pedagogical content knowledge, reflection, "4+2" practicum.

Аннотация: В статье рассматриваются содержание и компоненты умения будущих учителей начальных классов проектировать обучение родному языку. Актуальность проблемы определяется тем, что педагогическая практика по схеме "4+2" и внедрение новых учебников требуют от студента самостоятельно проектировать урок родного языка уже в период обучения в вузе. В исследовании использованы сравнительный анализ узбекской, российской и зарубежной литературы, анализ понятий, лингводидактический анализ материала действующих учебников "Родной язык" для 2 и 3 классов и моделирование. Установлено, что в существующих подходах хорошо разработаны постановка цели, отбор содержания и методов, а также оценивание, однако анализ языкового материала не выделяется как самостоятельный компонент проектирования. В качестве научной новизны предложено рабочее определение умения и обоснованы его компоненты - лингводидактико-аналитический, целе-результативный, содержательно-конструктивный, оценочно-диагностический и рефлексивно-коррекционный - с наблюдаемыми показателями. Согласно позиции автора, лингводидактический анализ является ядром умения, и от его качества зависит правильность остальных компонентов. Результаты могут служить основой для разработки проектировочных заданий и критериев оценки умения в курсе "Методика преподавания родного языка".

Ключевые слова: обучение родному языку, умение проектировать, проект урока, лингводидактический анализ, будущий учитель начальных классов, предметно-педагогическое знание, рефлексия, практика "4+2".

KIRIŞ

Bölajak boşlanğiç sinf öqituvçisini tayyorlaş tizimida sönggi yillarda muhim özgariş yuz berdi: kunduzgi ta'limning 3-4 kurs talabalari haftaning tört kunini oliy ta'lim muassasasida, ikki kunini esa maktabda amaliyotda ötkazmoqda [1, 2-band]. 2025-yilda bu amaliyotni "bir ustozga bir talaba" tamoyili asosida taşkil etiş belgilandi [2, 2-ilova, 12-band]. Şu tariqa talaba fanni örganiş bilan bir vaqtda sinfda muntazam dars ötmoqda. Maktab ta'limini rivojlantiriş böyiça milliy dasturda esa yangi darsliklarni amaliyotga kiritiş va milliy öquv dasturiga asoslangan öqitiş metodikalarini işlab çiqiş vazifasi qöyilgan [3, 2- va 7-bandlar]. Yangi darslik bilan işlayotgan öqituvçi tayyor işlanmani takrorlaş bilan çeklana olmaydi: u darslik materialini öz sinfi uçun qayta qurişi kerak.

Bu ikki özgariş bölajak öqituvçi oldiga bir xil talabni qöyadi: u ona tili darsini amaliyotning dastlabki haftalaridayoq mustaqil loyihalay olişi lozim. Biroq ilmiy adabiyotlarda loyihalaş, asosan, barça fanlar uçun umumiy faoliyat sifatida tavsiflanadi va ona tili ta'limiga xos jihatlar alohida oçib berilmaydi. Natijada metodika fanini öqitişda talabaga qanday harakatlarni örgatiş va ularni qanday baholaş kerakligi noaniq qolmoqda. Tadqiqot obyekti - oliy ta'lim muassasalarida bölajak boşlanğiç sinf öqituvçilarini ona tili ta'limini loyihalaşga tayyorlaş jarayoni, predmeti - ona tili ta'limini loyihalaş könikmasining mazmuni va tarkibiy qismlari. Uşbu maqolaning maqsadi bölajak boşlanğiç sinf öqituvçilarining ona tili ta'limini loyihalaş könikmasi mazmunini aniqlaştiriş va uning tarkibiy qismlarini asoslaşdan iborat. Maqsadga erişiş uçun quyidagi vazifalar qöyildi: loyihalaşga oid özbek, MDH va xorijiy yondaşuvlarni qiyosiy tahlil qiliş; ona tili darsini loyihalaşning öziga xosligini aniqlaş; könikmaning tarkibiy qismlari va ularning kuzatiladigan körsatkiçlarini işlab çiqiş.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ŞARHI

Ta'limni loyihalaş muammosi Özbekistonda dastlab umumdidaktik nuqtayi nazardan işlab çiqilgan.

M. Tojiyev va hammualliflari öquv maşğulotini loyihalaşni töqqiz bosqiçdan iborat jarayon sifatida tavsiflaydi [4, 115-118-b.] va öqituvçidan öz faoliyatini hamda maşğulot loyihalarini tuziş könikmasini talab qiladi [4, 10-b.]. Bu tizim mantiqan izçil, ammo u oliy ta'limdagi matematika maşğulotlari misolida qurilgan va fan mazmuniga boğliq bölmagan umumiy talablar şaklida ifodalangan.

Boşlanğiç ta'lim yönalişiga yaqinroq işda M. Ş. Dehqonova bölajak boşlanğiç ta'lim öqituvçilarining pedagogik loyihalaş kompetentligini örganadi, biroq tadqiqot predmetini mutaxassislik fanlari maşğulotlarini loyihalaşning usul, şakl va vositalari sifatida belgilaydi [5, 9-b.]. Ona tili öqitiş metodikasi faniga oid "loyihalaş darsi" ham bu işda asosan interfaol metodlarni tanlaş orqali tavsiflangan [5, 16-b.].

Ona tili ta'limini loyihalaş masalasi keyingi yillarda alohida tadqiqotlarda kötarila boşladi. H. Ğ. Jumayeva boşlanğiç sinf ona tili ta'limini loyihalaşni sakkiz bosqiçda tasvirlaydi [6, 16-b.], ammo uning tadqiqoti öquvçilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirişga qaratilgan, ya'ni loyihalovçi öqituvçining tayyorgarligi tadqiqot obyekti emas.

Bölajak öqituvçiga bevosita qaratilgan iş sifatida N. B. Raupovaning maqolasini körsatiş mumkin: muallif ona tili ta'limini loyihalaş kompetensiyasini metakognitiv yondaşuv asosida rivojlantirişni taklif qiladi va uning beşta jihatini ajratadi [7, 170-b.]. Raupova yondaşuvining qimmati şundaki, unda loyihalaş jarayon bosqiçlari emas, öqituvçi faoliyatining jihatlari orqali tavsiflanadi va refleksiya alohida jihat sifatida körsatiladi. Şu bilan birga, til materialini tahlil qiliş bu tasnifda hisobga olinadigan omillardan biri bölib qoladi.

MDH tadqiqotlarida boşlanğiç sinf öqituvçisining ona tili böyiça tayyorgarligi köpinça lingvometodik kompetensiya doirasida örganiladi.

I. V. Xairova va V. G. Zakirova boşlanğiç sinfda rus tilini öqitişga tayyorlanayotgan bakalavrlar uçun lingvistik va metodik kompetensiyani rivojlantirişning biliş va loyihaviy strategiyalarini hamda ularni amalga oşiriş taktikalarini taklif qiladi [8, 465–473-b.].

S. Georgiyeva va I. Xairova esa bölajak öqituvçining matn kompetensiyasini matn bilan bajariladigan tört harakat – matnni qabul qiliş, tahlil qiliş, tahrirlaş va lingvistik topşiriqlar bilan işlaş orqali tavsiflaydi va uni ikki mamlakatdagi 228 nafar talaba iştirokidagi tajribada tekşiradi [9, 323–336-b.]. Bu işlarda til bilimini metodik harakatga aylantiriş zarurligi töğri körsatilgan, ammo dars loyihasi kompetensiyaning köplab namoyon böliş şakllaridan biri sifatida qolgan.

Xorijiy tadqiqotlar loyihalaşning fan mazmuniga boğliqligini nazariy va empirik jihatdan asoslaydi. L. Shulman öqituvçi bilimining tarkibida fan mazmuni bilimi va umumpedagogik bilimdan taşqari "pedagogik mazmun bilimi"ni ajratadi; u muayyan mavzuni özlaştirişni nima osonlaştirişi yoki qiyinlaştirişi va öquvçilar darsga qanday tasavvurlar bilan kelişini bilişni ham öz içiga oladi [10, 9-b.].

J. König va hammualliflari bölajak til öqituvçilarining dars rejalarini tahlil qilib, umumdidaktik va fan mazmuniga xos loyihalaş könikmalarini alohida ölçagan hamda ikkinçisini egallaş qiyinroq keçişini aniqlagan [11, 131-b.].

L. Großmann va hammualliflarining şarhiga köra, dars loyihalaşga oid tadqiqotlarda bilim köproq örganilgan, loyihalaş jarayoni va öqituvçining öz qarorlarini qanday asoslaşi esa kam e'tibor olgan [12, 329-b.].

M. Chevikbash va hammualliflari ham yangi öqituvçilar uçun öquvçining özlaştiriş yölini oldindan köra biliş dars rejalaştirişning eng qiyin jihati ekanini qayd etadi [13]. Darslik va öqituvçi qöllanmalarining özi bölajak öqituvçiga töliq loyiha tuziş uçun yetarli bölmasligi ham körsatilgan [14].

Adabiyotlar tahlili quyidagi boşliqni körsatadi. Loyihalaşning umumdidaktik tarkibi, ya'ni maqsad qöyiş, mazmun va metod tanlaş hamda baholaş yaxşi işlab çiqilgan. Xorijiy tadqiqotlar loyihalaş könikmasi fan mazmuniga boğliqligini tasdiqlaydi. Biroq ona tili ta'limi uçun bu boğliqlik nimada namoyon bölişi, ya'ni bölajak öqituvçi dars loyihasini tuzişda til materiali bilan qanday işlaşi kerakligi aniq tavsiflanmagan. Bizningça, aynan şu savolga javob ona tili ta'limini loyihalaş könikmasining öziga xos mazmunini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy xususiyatga ega bölib, uning metodologik asosini L. Shulmanning pedagogik mazmun bilimi haqidagi qaraşlari [10] va loyihalaşni qat'iy ketma-ketlikdagi bosqiçlar emas, refleksiyaga asoslangan jarayon sifatida talqin qiluvçi yondaşuv [15, 483-b.] taşkil etadi. Tadqiqotda quyidagi usullar qöllandi:

- pedagogik va metodik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qiliş: loyihalaş tarkibiga oid üç yondaşuv [4, 6; 7] bir xil mezonlar (tavsif turi, qöllaniş sohasi, til materialini tahlil qilişning örni, baholaş va qayta loyihalaşning örni) böyiça taqqoslandi;
- tuşunçalarni tahlil qiliş: "könikma", "malaka" va "kompetensiya" tuşunçalarining ona tili metodikasi va xalqaro hujjatlardagi talqini örganildi [16, 17];
- darslik materialini lingvodidaktik tahlil qiliş: amaldagi 2-sinf "Ona tili" darsligining talaffuz va imlo nomuvofiqligiga oid mavzulari [18, 52-55, 70-73-b.], söz ma'nosiga oid mavzusi [19, 74–76-b.] hamda 3-sinf darsligining ot söz turkumiga oid mavzulari [20, 37-43-b.] tarkibiy qismlarni misol asosida tekşiriş uçun tahlil qilindi;
- modellaştiriş: qiyosiy tahlil natijalari asosida könikmaning tarkibiy qismlari va ularning kuzatiladigan körsatkiçlari işlab çiqildi.

Tadqiqotda empirik ma'lumotlar qöllanmagan; işlab çiqilgan tarkibiy qismlar keyingi bosqiçda tajriba-sinov orqali tekşiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, tuşunça tanlovini asoslaş zarur. Ona tili metodikasida könikma takomillaşib malakaga aylanişi, malakada esa harakat öylab ötirmasdan, avtomatlaşgan holda bajarilişi qayd etiladi [16, 17-b.]. Dars loyihalaş esa heç qaçon avtomatlaşmaydi: har bir yangi mavzu va har bir yangi sinf öqituvçidan til materialini qaytadan tahlil qilişni talab qiladi. Şu sababli loyihalaşni malaka emas, ongli boşqariladigan könikma deb hisoblaymiz.

Yevropa Ittifoqi Kengaşining tavsiyanomasida könikma natijaga erişiş uçun jarayonlarni amalga oşiriş va mavjud bilimdan foydalaniş qobiliyati, kompetensiya esa bilim, könikma va munosabatlarning birikmasi sifatida ta'riflanadi [17, 6-b.].

Kompetensiya kengroq tuşunça bölsa-da, uni bevosita kuzatiş qiyin. Könikma esa aniq mahsulotda, ya'ni talaba tuzgan dars loyihasida va uni asoslaş jarayonida körinadi. Şuning uçun "könikma" atamasi tadqiqotni ölçaş mumkin bölgan harakatlarga yönaltiradi.

Üç yondaşuvni qiyoslaş natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: **Ta'limni loyihalaş tarkibiga oid yondaşuvlarning qiyosiy tavsifi**

Kurs bölimi va mavzu	Tahlilning asosiy savoli	Kutiladigan qiyinçilik	Loyihadagi özgariş
Fonetika va imlo: x va h tovuşlari (2-sinf)	Talaffuz va yozuv qayerda farq qiladi?	Yaqin talaffuz qilinadigan tovuşlarni yozuvda almaştiriş	Tovuşlarni farqlaş va imloni luğat orqali tekşiriş dars markaziga qöyiladi
Luğat ustida işlaş: "isrof" va "uvol" (2-sinf)	Sözlarning ma'nosi qanday farqlanadi?	Ma'nosi yaqin sözlarni bir xil ma'noda qöllaş	Ma'no farqini körsatuvçi vaziyatlar va sözni qöllaş topşiriği tanlanadi
Grammatika: birlik va köplikdagi otlar (3-sinf)	Qoida qaysi belgiga tayanadi?	Söroqqa javob böladigan olmoşni ("ular") ot deb hisoblaş	Söroq bilan birga köplik qöşimçasiga tayaniş va çegaraviy holatni muhokama qiliş rejalaştiriladi
Kurs bölimi va mavzu	Tahlilning asosiy savoli	Kutiladigan qiyinçilik	Loyihadagi özgariş
Fonetika va imlo: x va h tovuşlari (2-sinf)	Talaffuz va yozuv qayerda farq qiladi?	Yaqin talaffuz qilinadigan tovuşlarni yozuvda almaştiriş	Tovuşlarni farqlaş va imloni luğat orqali tekşiriş dars markaziga qöyiladi

Jadvaldan ikki xulosa kelib çiqadi.

Birinçidan, maqsad qöyiş, mazmun va metod tanlaş hamda baholaş barça yondaşuvlarda mavjud; ular loyihalaşning umumdidaktik asosi bölib, ona tili darsi uçun ham saqlanişi lozim.

Ikkinçidan, til materialini tahlil qiliş birorta yondaşuvda mustaqil tarkibiy qism maqomini olmagan, qayta loyihalaş esa faqat eng sönggi işda paydo bölgan.

Amaliyot ham bu boşliqni tasdiqlaydi: R. S. Isroilova öqituvçilarning dars işlanmalarida maşq şartlarini bajariş bilan çeklaniş va söz ma'nosi ustida işlaşning yöqligini qayd etgan [21, 13-b.].

Şu asosda biz ona tili darsini loyihalaşning özige xosligini til materialini lingvodidaktik tahlil qilişda köramiz. Lingvistik tahlil "bu til hodisasi nima?" degan savolga javob beradi. Lingvodidaktik tahlil esa "bu hodisani muayyan sinf öquvçisi qanday özlaştiradi, qayerda qiynaladi, uni qaysi tartibda örgatiş kerak?" degan savollarga javob izlaydi. Bunday tahlil Shulman ta'riflagan pedagogik mazmun bilimining ona tili ta'limidagi amaliy körinişidir.

S. Matchonov va hammualliflari ham fonetik könikmalarga yetarli e'tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetişini ta'kidlaydi [16, 9-b.]; bu esa til sathlari özaro boğliqligini va bir sathdagi boşliq boşqa sathda xato sifatida namoyon bölişini körsatadi.

Natijada bölajak öqituvçining ona tili ta'limini loyihalaş könikmasi tarkibida beşta özaro boğliq qism ajratildi (2-jadval).

2-jadval: **Ona tili ta'limini loyihalaş könikmasining tarkibiy qismlari**

Tarkibiy qism	Mazmuni	Kuzatiladigan körsatkiçlar
Lingvodidaktik-tahliliy	Til hodisasini öquvçi özlaştirişi nuqtayi nazaridan tahlil qiliş	Hodisa mohiyatini töğri izohlaydi; kutiladigan xato va uning sababini başorat qiladi; mavzuning oldingi va keyingi mavzular bilan boğlanişini körsatadi
Maqsad-natijaviy	Dars maqsadini kuzatiladigan natija şaklida ifodalaş	Maqsadni öquvçi harakati orqali yozadi; natijaga erişilganini körsatuvçi dalilni belgilaydi
Mazmuniy-konstruktiv	Maşq, metod va vositalarni tanlaş va tartiblaş	Har bir maşqni aniq qiyinçilikka qaratadi; oddiydan murakkabga joylaştiradi; metod tanlovini asoslaydi
Baholaş-diagnostik	Natijani aniqlaş usulini oldindan belgilaş	Maqsadni tekşiradigan topşiriq tuzadi; xato turini aniqlaş yölini körsatadi
Refleksiv-tuzatuvçi	Dars natijasiga köra loyihani qayta işlaş	Qarorlarini asoslaydi; dars natijasini dalil bilan tahlil qiladi; loyihaga aniq özgartiriş kiritadi

Lingvodidaktik-tahliliy qism könikmaning özagi ekanini 2-sinf darsligidagi x va h tovuşlarining talaffuzi va imlosiga bağişlangan mavzu misolida körsatiş mumkin [18, 70-73-b.]. Bu tovuşlar talaffuzda bir-biriga yaqin bölgani sababli öquvçilar yozuvda ularni almaştirib yuborişi mumkin (masalan, "daraxt" örniga "daraht", "mehmon" örniga "mexmon" deb yozişi mumkin). Tahlil ötkazmagan talaba dars maqsadini "x va h harflari haqida ma'lumot beriş" tarzida yozadi va darslikdagi maşqlarni ketma-ket bajartiriş bilan çeklanadi. Lingvodidaktik tahlil ötkazgan talaba esa xato manbai talaffuzdagi yaqinlik ekanini aniqlaydi va dars markaziga ikki tovuşni talaffuzda farqlaş hamda tez-tez xato qilinadigan sözlarning imlosini luğat orqali tekşirişni qöyadi. Şundan keyin maqsad aniq natijaga aylanadi: "öquvçi x va h iştirok etgan sözlarni töğri talaffuz qiladi va ularning yozilişini luğat yordamida tekşira oladi". Maşqlar ham tasodifiy emas, şu natijaga xizmat qiladigan tarzda tanlanadi, dars oxiridagi tekşiruv esa aynan şu sözlar asosida tuziladi. Demak, qolgan tört tarkibiy qism birinçisidan kelib çiqadi.

Tarkibiy qismlar bir-biriga muvofiqlik şarti bilan işlaydi. N. B. Raupova maqsad noaniq qöyilsa, topşiriq va baholaş mezonlarini tanlaş qiyinlaşişini, baholaş vositasi kutilgan natijani ölçamasa, dars muvaffaqiyati haqida asosli xulosa çiqarib bölmasligini ta'kidlaydi [7, 170-b.]. Bizning yondaşuvimizda bu muvofiqlik zanjiri bir böğin oldinroqdan boşlanadi: til materialining tahlili nötöğri bölsa, maqsad ham, maşq ham, baholaş ham nötöğri nuqtaga qaratiladi. Refleksiv-tuzatuvçi qism esa zanjirni yopadi.

P. John bölajak öqituvçilarni dars rejalaştirişga örgatişda ustun bölgan ratsional-texnik model örniga şaroitga boğliq, refleksiyaga asoslangan modelni taklif qilgan [15, 483-b.]. "4+2" tartibidagi amaliyot bu ğoyani amalga oşiriş uçun qulay şaroit yaratadi: talaba loyihani har hafta sinfda sinab körib, öquvçilar xatosini til hodisasining xususiyati bilan boğlagan holda qayta işlay oladi.

Lingvodidaktik tahlilning mazmuni faqat imlo mavzulari bilan çeklanmaydi. Leksik işga oid misolni köraylik. 2-sinf darsligining "Sözning ma'nolarini örganamiz" mavzusidagi suhbatda Akmal buvisidan "isrof" va "uvol" sözlarining ma'nosini söraydi; buvisi "isrof"ni izohlab beradi, "uvol" sözi esa izohsiz qoladi [19, 74-b.]. Bu yerda tahlilning obyekti yozuv emas, söz ma'nosidir. Ikki söz ma'no jihatdan bir-biriga yaqin, ammo bir xil emas: ulardan birini töğri izohlagan öquvçi ikkinçisini ham şu ma'noda tuşunib qoliş mumkin.

Tahlil ötkazmagan talaba darsni “sözlarning ma’nosini tuşuntiriş” bilan çeklaydi va izohni özi aytib beradi. Lingvodidaktik tahlil ötkazgan talaba esa ikki sözning ma’no farqini özi uçun aniqlab oladi, öquvçilar hayotidan ana şu farqni körsatadigan vaziyatlarni tanlaydi va izohni öquvçining özi topişiga imkon beradigan savollar tuzadi. Natijada dars maqsadi ham özgaradi: “öquvçi ‘isrof’ va ‘uvol’ sözlarini öz gapida töğri qöllay oladi”. Tekşiruv topşiriği esa sözning izohini yod aytişni emas, uni yangi vaziyatda qöllaşni talab qiladi.

Grammatika mavzularida tahlil boşqa yönaliş oladi. 3-sinf darsligida ot söz turkumiga bir neça mavzu bağişlangan [20, 37–43-b.]. Birlik va köplikdagi otlarni farqlaşga oid qoidada birlikdagi otlar Kim? Nima?, köplikdagi otlar esa Kimlar? Nimalar? söroqlariga javob bölişi aytiladi; şu betdagi matnda esa “Ular ekinga zarar yetkazadi” gapi bor [20, 40-b.]. Bu gapdagi “ular” sözi Nimalar? söroğiga javob böladi, biroq ot emas. Qoidaga sözma-söz tayangan öquvçi uni köplikdagi otlar qatoriga qöşişi kutiladi. Tahlil ötkazgan talaba esa söroq bilan birga söz şakliga, ya’ni köplik qöşimçasiga ham tayanişni rejalaştiradi va bu gapni darsda alohida muhokama qiladi. Üçala misoldagi kutiladigan qiyinçiliklar va ularga köra loyihadagi özgarişlar 3-jadvalda umumlaştirilgan.

3-jadval: **Kurs bölimiga köra lingvodidaktik tahlil diqqat markazining özgarişi**

Kurs bölimi va mavzu	Tahlilning asosiy savoli	Kutiladigan qiyinçilik	Loyihadagi özgariş
Fonetika va imlo: x va h tovuşlari (2-sinf)	Talaffuz va yozuv qayerda farq qiladi?	Yaqin talaffuz qilinadigan tovuşlarni yozuvda almaştiriş	Tovuşlarni farqlaş va imloni luğat orqali tekşiriş dars markaziga qöyiladi
Luğat ustida işlaş: “isrof” va “uvol” (2-sinf)	Sözlarning ma’nosi qanday farqlanadi?	Ma’nosi yaqin sözlarni bir xil ma’noda qöllaş	Ma’no farqini körsatuvçi vaziyatlar va sözni qöllaş topşiriği tanlanadi
Grammatika: birlik va köplikdagi otlar (3-sinf)	Qoida qaysi belgiga tayanadi?	Söroqqa javob böladigan olmoşni (“ular”) ot deb hisoblaş	Söroq bilan birga köplik qöşimçasiga tayaniş va çegaraviy holatni muhokama qiliş rejalaştiriladi

Könikmaning tarkibi barqaror bölsa-da, birinçi qismining mazmuni kurs bölimiga qarab özgaradi. Savod örgatiş va fonetika darslarida tovuş bilan harf munosabati, imlo darslarida talaffuz va yozuv nomuvofiqligi, grammatika darslarida grammatik ma’no va şakl boğliqligi, luğat ustida işlaşda söz ma’nosining qirralari, nutq östiriş darslarida esa matnning yaxlitligi tahlilning asosiy obyekti böladi. Bu kuzatiş metodika fanida loyihalaş topşiriqlarini kurs bölimlari böyiça quriş zarurligini körsatadi.

Taklif etilayotgan tarkib böyiça ikki mulohazani ham qayd etiş lozim. Birinçidan, tarkibiy qismlarning ajratilişi ularni alohida-alohida örgatiş kerak degani emas. Talabaga tarkibiy qismlar könikmani tahlil qiliş va baholaş uçun tayanç sifatida beriladi, loyihaning özi esa yaxlit holda tuziladi. Aks holda talaba har bir qismni rasmiy ravişda töldirib, ular orasidagi boğlanişni körmay qolişi mumkin. Ikkinçidan, lingvodidaktik tahlil talabadan mustahkam til bilimini talab qiladi. Agar talaba til hodisasining özini nötöğri tuşunsa, uning öquvçi qiyinçiligi haqidagi başorati ham nötöğri böladi. Demak, metodika fanida loyihalaşga örgatiş til fanlarida olingan bilimlarga tayanişi va ularni dars qaroriga aylantirişga xizmat qilişi kerak. Bu ikki mulohaza ajratilgan tarkibiy qismlarning amaldagi samaradorligini tajriba-sinov orqali tekşiriş zarurligini körsatadi.

Tahlil natijasida quyidagi işçi ta’rif işlab çiqildi: bölajak boşlanğiç sinf öqituvçisining ona tili ta’limini loyihalaş könikmasi – bu uning til materialini lingvodidaktik tahlil qiliş asosida dars maqsadini kuzatiladigan natija şaklida belgilaşi, mazmun, maşq, metod va vositalarni şu natijaga muvofiq tanlab izçil joylaştirişi, baholaş usulini oldindan belgilaşi hamda loyihani amaliyotda sinab körib, qarorlarini asoslagan holda takomillaştira olişidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalarni çiqariş imkonini berdi.

Birinçidan, ona tili ta’limini loyihalaş umumdidaktik loyihalaş könikmasining oddiy qöllanişi emas, balki fan mazmuniga boğliq özига xos könikmadir. Uning özига xosligi til materialini lingvodidaktik tahlil qilişda namoyon böladi.

Ikkinçidan, könikma lingvodidaktik-tahliliy, maqsad-natijaviy, mazmuniy-konstruktiv, baholaş-diagnostik va refleksiv-tuzatuvçi qismlardan iborat. Ularning özagini lingvodidaktik-tahliliy qism taşkil etadi: qolgan qismlarning töğriligi şu tahlilning sifatiga boğliq.

Üçinçidan, har bir tarkibiy qism talaba tuzgan dars loyihasida kuzatiladigan körsatkiçlar orqali ifodalandi. Bu könikmani baholaş mezonlarini işlab çiqiş uçun asos böladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilar taklif etiladi:

1. "Ona tili öqitiş metodikasi" fani öquv dasturida "dars loyihasini tuza oliş" natijasini ta'lim natijalari qatoriga kiritiş va uni beş tarkibiy qism böyiça baholaş;
2. fanning amaliy maşğulotlarida loyihalaş topşiriqlarini darsda örgatiladigan til hodisasining lingvodidaktik tahlilidan boşlaş;
3. "4+2" amaliyotida talabaning universitetda tuzgan dars loyihasini sinfda sinab körişi va natijasiga köra qayta işlaşini amaliyot hisobotining majburiy qismi sifatida belgilaş.

Keyingi tadqiqotlarda ajratilgan tarkibiy qismlar asosida könikmaning rivojlanganlik mezonlari va darajalarini işlab çiqiş hamda ularni tajriba-sinov orqali tekşiriş közda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati:

1. Özbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). Pedagogik ta'lim sifatini oşiriş va pedagog kadrlar tayyorlovçi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantiriş çora-tadbirlari töğrisida (2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qaror). https://lex.uz/ru/docs/6079561
2. Özbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). Pedagog kadrlar tayyorlaş tizimini yanada takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida (2025-yil 28-apreldagi PF-73-son farmon). https://lex.uz/uz/docs/-7499721
3. Özbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantiriş böyiça milliy dasturni tasdiqlaş töğrisida (2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmon). https://lex.uz/docs/-6008663
4. Tojiyev, M., Ziyomuhamedov, B., Usmonov, B., & Xurramov, A. (2017). Öqituvçi faoliyatini loyihalaş [Monografiya]. Turon-Iqbol.
5. Dehqonova, M. Ş. (2024). Bölajak boşlanğiç ta'lim öqituvçilarining pedagogik loyihalaş kompetentligini rivojlantiriş metodikasi [Pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. Farğona.
6. Jumayeva, H. Ğ. (2024). Loyihaviy yondaşuv asosida boşlanğiç sinf ona tili ta'limida öquvçilarning ijodiy qobiliyatini takomillaştiriş metodikasi [Pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. Buxoro.
7. Raupova, N. B. (2026). Bölajak boşlanğiç sinf öqituvçilarining ona tili ta'limini loyihalaş kompetensiyasini metakognitiv yondaşuv asosida rivojlantiriş metodikasi. Maktabgaça va maktab ta'limi, 10(5), 169-173.
8. Khairova, I. V., & Zakirova, V. G. (2019). Development of future primary school teachers' linguistic and methodological competence. In V International Forum on Teacher Education (ARPHA Proceedings, Vol. 1, pp. 465–473). https://doi.org/10.3897/ap.1.e0314
9. Georgieva, S., & Khairova, I. (2022). Textual competence of future primary school teachers: Reality and perspectives. In VII International Forum on Teacher Education (ARPHA Proceedings, Vol. 5, pp. 323-336). https://doi.org/10.3897/ap.5.e0323
10. Shulman, L. S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. Educational Researcher, 15(2), 4-14. https://doi.org/10.3102/0013189X015002004
11. König, J., Bremerich-Vos, A., Buchholtz, C., Fladung, I., & Glutsch, N. (2020). Pre-service teachers' generic and subject-specific lesson-planning skills: On learning adaptive teaching during initial teacher education. European Journal of Teacher Education, 43(2), 131-151. https://doi.org/10.1080/02619768.2019.1679115
12. Großmann, L., Koberstein-Schwarz, M., Scholl, D., Krüger, D., & Meisert, A. (2025). Establishing common ground in empirical research on science teachers' lesson planning competence: A scoping review. Studies in Science Education, 61(2), 329-379. https://doi.org/10.1080/03057267.2024.2415246
13. Cevikbas, M., König, J., & Rothland, M. (2024). Empirical research on teacher competence in mathematics lesson planning: Recent developments. ZDM - Mathematics Education, 56(1), 101-113. https://doi.org/10.1007/s11858-023-01487-2
14. Pepin, B., Kohanová, I., & Lada, M. (2025). Developing pre-service teachers' capacity for lesson planning with the support of curriculum resources. ZDM - Mathematics Education, 57(5), 1003-1017. https://doi.org/10.1007/s11858-025-01685-0
15. John, P. D. (2006). Lesson planning and the student teacher: Re-thinking the dominant model. Journal of Curriculum Studies, 38(4), 483-498. https://doi.org/10.1080/00220270500363620
16. Matchonov, S., Ğulomova, X., Yöldoşeva, Ş., & Sariyev, Ş. (2022). Ona tili öqitiş metodikasi: Boşlanğiç ta'lim fakulteti talabalari uçun darslik. Bayoz.
17. Council of the European Union. (2018). Council Recommendation of 22 May 2018 on key competences for lifelong learning (2018/C 189/01). Official Journal of the European Union, C 189, 1-13.
18. Kuranov, S. D. (2023). Ona tili: Umumiy örta ta'lim maktablarining 2-sinfi uçun darslik (1-qism). Novda Edutainment.
19. Kuranov, S. D. (2023). Ona tili: Umumiy örta ta'lim maktablarining 2-sinfi uçun darslik (2-qism). Novda Edutainment.
20. Baynazarova, D. D. (2023). Ona tili: Umumiy örta ta'lim maktablarining 3-sinfi uçun darslik (3-qism). Novda Edutainment.
21. Isroilova, R. S. (2020). Boşlanğiç sinf ona tili darslarini loyihalaş jarayonida öquvçilarni faollaştiriş texnologiyasi [Pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. Buxoro.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Aşurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovçi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №11(2)

© Materiallar köçirib bosilganda "Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida körsatilişi şart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toşkent şahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.